



# M AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogik, metodologik, innovatsion fan va ta'limga oid ilmiy jurnal

№1/2023

Litsenziya raqami: №095310



# M

## AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 218 sahifa, 30-oktyabr, 2023-yil.*

### TAHRIR HAY'ATI:

|  |  |                           |
|--|--|---------------------------|
| Qirg'izboyev Abdug'affor Karimjonovich | tarix fanlari doktori, professor   | Bosh muharrir             |
| Ibragimova Gulsanam Ne'matovna         | pedagogika fanlari doktori(DSc), professor   | Bosh muharrir o'rinbosari |
| Hamdamova Maxzuna Tursunovna           | pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent   | Bosh muharrir o'rinbosari |
| Jamoldinova Odinoxon Rasulovna         | pedagogika fanlari doktori, professor  | A'zo                      |
| Djamilova Nargiza Nuriddinovna         | pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  | A'zo                      |
| Babayeva Dono Razzakovna               | pedagogika fanlari nomzodi, professor  | A'zo                      |
| Sadikova Shoista Akbarovna             | pedagogika fanlari nomzodi, professor  | A'zo                      |
| Jumanova Fotima Uralovna               | pedagogika fanlari nomzodi, dotsent  | A'zo                      |
| Shirbachevna Gulchexra Shakirovna      | pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent   | A'zo                      |
| Mirzayeva Farog'at Odiljonovna         | pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent   | A'zo                      |
| Bafayev Muxiddin Muxammadovich         | psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  | A'zo                      |
| Ne'matov Shuhrat yergashovich          | pedagogika fanlari nomzodi   | A'zo                      |
| Ochilov Sevin Rajaboyevich             | Qashqadaryo viloyat Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi Pedagoglarning bilimi hamda ko'nikmalarini baholash sho'basini metodisti | A'zo                      |
| Yuldasheva Dilnoza Bekmuradovna        | Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent   | A'zo                      |
| Nurkeldiyeva Dilbar Axmedovna          | pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  | A'zo                      |
| Radjabova Zuxra Tirkashevna            | pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent   | A'zo                      |
| Gaynazarova Gulbahor Abdullayevna      | pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent   | A'zo                      |

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti



# MUNDARIJA

|  |    |
|--|----|
| “Ta’lim sifatini oshirish – Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yakka-yu yagona to‘g‘ri yo‘lidir” .....                  | 6  |
| Qirg‘zboyev Abdug‘affor Karimjonovich  |    |
| Ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni takomillashtirish mexanizmlari .....                                  | 8  |
| Ibragimova Gulsanam Ne‘matovna   |    |
| Влияние игровой деятельности в процесс изучения английского языка в ДОО .....  | 11 |
| Хамдамова Махзуна Турсуновна   |    |
| Methodological advancements in the English instruction of preschoolers.....  | 15 |
| Asiljonova Shohsanam Doniyorovna   |    |
| Yangi O‘zbekiston maktabgacha ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar .....                                   | 18 |
| Babayeva D. R.   |    |
| Maktabgacha yoshdagi bolalarni iqtisodiy tarbiyalashda pedagoglar va ota-onalarning o‘zaro ta’siri .....               | 21 |
| Bozorbayeva Gulruh Alisher qizi  |    |
| Zamonaviy sharoitlarda maktabgacha ta’lim tizimida metodik ishlarni tashkil etish.....                                 | 25 |
| Fayziyeva Mabudaxon Muhammadjonovna  |    |
| Неполные предложения как объект исследования .....   | 28 |
| Ибатова Амира Шавкатовна, Юлдашева Дилноза Бекмуродовна  |    |
| Lider va uning fazilatlarini xorijlik olimlar va tadqiqotchilar nigohida .....   | 32 |
| Irgasheva Madinabonu Baxromjon qizi  |    |
| Ijtimoiy tarbiyada mahallaning o‘rni.....  | 36 |
| Raximberganova Munajat Muzaffar qizi, Iskandarov Nodirbek Ravshanbekovich  |    |
| Maktabgacha yoshdagi bolalarni ijodiy faoliyatga o‘rgatishda STEAM ta’lim texnologiyasining ahamiyati .....            | 38 |
| Kojageldiyeva Aziza Muxsum qizi  |    |
| Kredit-modul tizimida mustaqil ta’limni tashkil etishning sharoit va imkoniyatlari.....                                | 41 |
| Mirzayeva Faroxat Odiljonovna, Odiljonova Shoxsanam  |    |
| Tolerantlikning tarixiy-falsafiy va psixologik ildizlari.....  | 46 |
| Bafayev Muxiddin Muhammadovich   |    |
| Особенности занятий спортом в подростковом возрасте и их влияние на школьную успеваемость учеников.....                | 50 |
| Ризаев Азизжон Рахимджанович   |    |
| Maktabgacha ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalari .....   | 54 |
| Marasulova Dono Nigmatullayevna  |    |
| Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarini ma’naviy fazilatlarini shakllantirish texnologiyalari.....      | 59 |
| Matchanov B. O.  |    |
| Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda hayot xavfsizligi ko‘nikmalarini shakllantirishning psixologik xususiyatlari..... | 63 |
| Muratova Munavvar O‘rol qizi   |    |
| Развитие речи дошкольников как социально-коммуникативный процесс.....  | 67 |
| Нажмиддинова Гулноза Одиловна  |    |
| Bo‘lajak tarbiyachilarning mediakompetentligini oshirish mexanizmlari.....   | 70 |
| Nazarmatova Dilshoda Umarali qizi  |    |
| Методика развития речи дошкольников.....   | 74 |
| Очилова Хилола Шералиевна  |    |
| Okul öncesi dönemde bulunan çocuklar için anne-babaların çocuk kitapları seçim kriterlerinin incelenmesi.....          | 78 |
| Elem Gökteş  |    |
| Дидактическая игра как средство экологического образования детей дошкольника.....                                      | 87 |
| Равшанова Наргиза Норбоевна  |    |
| Отешова Гульнур Кабуловна  |    |



|   |     |
|---|-----|
| Оценка эффективности цифровых технологий по сравнению с традиционными методами управления качеством образования в дошкольных учреждениях.....               | 91  |
| Хайдаров Р.   |     |
| Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda dizaynerlik qobiliyatini rivojlantirish metodikasi .....   | 95  |
| Radjarova Zuxra Tirkashevna   |     |
| Развитие коммуникативной компетентности среди будущих дошкольных учителей .....   | 100 |
| Садикова Шоиста, Тохилова Шохсанам  |     |
| Maktabgacha ta'limda yuksalish .....  | 104 |
| Shirbachevna Gulchehra Shakirovna, Nuraliyeva Rahbaroy Ravshanbek qizi  |     |
| Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilarini kasbga yo'naltirib o'qitishda metodik tayyorgarligini takomillashtirish yuzasidan xalqaro tajribalar ..... | 106 |
| Sultansaidova Mushtariy Abzalxanovna  |     |
| Model of Professional Competencies Preschool Education Teacher .....  | 109 |
| Tokhirova Shokhsanam  |     |
| Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ijtimoiy ongning shakllantirishning metodik shart-sharoitlari .....  | 114 |
| Xo'jamatova X. M.   |     |
| Zamonaviy o'zbek oilalarda bolalarni milliy ruhda tarbiyalashda qadriyatlarining o'rnini .....  | 119 |
| Yakubova Zilola Zikirovna   |     |
| Maktabgacha yoshdagi bolalarga til o'rgatishda o'yinlardan foydalanish.....   | 122 |
| Mirkasimova Zilola Alisherovna  |     |
| Maktabgacha yoshdagi bolalarni kitob o'qishga qiziqitirishda psixologik qo'llab-quvvatlash .....  | 124 |
| Musratova Zilola Ulugbekovna  |     |
| Maktabgacha yoshdagi bolalarning shaxslararo munosabati .....   | 128 |
| Alimova Gulchehra Qobilovna, Sadikova Durdoni Shohasan qizi   |     |
| Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sahnalashtirish faoliyatini tashkil etish shakllari .....  | 132 |
| Teshabayeva Zamira Sobirovna  |     |
| Maktabgacha yoshdagi bolalarda qadriyatlar shakllanishida xavotirli holatning ahamiyati .....   | 135 |
| Maxmudova Dilorom Axmadovna   |     |
| MTT direktorlarini menejerlik faoliyatiga tayyorlash yo'nalishlari.....   | 137 |
| Nabiyev Erkin Esanovich, Xushiyeva Gavxar Mamatkarimovna  |     |
| Xorijiy tillarning psixologik xususiyatlari.....  | 140 |
| Atayev Shukur-Ali Ayub-Aliyevich  |     |
| Possibilities of Developing Social Competence in Future Educators.....  | 143 |
| Khalilova Dilnoza Furkatovna  |     |
| Bo'lajak o'qituvchilarning innovatsion kompetensiyasini rivojlantirish tamoyillari.....   | 146 |
| Jumanova Fatima Uralovna  |     |
| Talabalarning kasbiy kompetentligini integrativ yondashuv asosida rivojlantirish texnologiyasi.....   | 149 |
| Kamalova Gavhar Akbarovna   |     |
| Til leksik sistemasining kognitiv aspekti nazariyasi.....   | 152 |
| Muzaffarova Nodira Mardonovna, Umarova Obida Avazxonovna  |     |
| Madaniyatlararo muloqot asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning samaradorligi.....                                  | 156 |
| Ne'matova G. A.   |     |
| Soha mutaxassislarining ijtimoiy psixologik bilimdonligini oshirish muammolari .....  | 160 |
| Norboyeva Dilafruz Jumakulovna  |     |
| Abdulla Oripov she'riyatida qush nomlari uslubiy vosita sifatida.....   | 163 |
| Yuldasheva Dilnoza  |     |
| Talabaning tadqiqotchilik qobiliyatini rivojlantirishda ilmiy uslubning ahamiyati.....  | 166 |
| Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna   |     |
| Raxmatova Saodat Amrakulovna  |     |
| Ona bilan munosabatning o'smir tomonidan guruhni idrok etilishiga ta'sir xususiyatlari .....  | 172 |
| Abdullayeva Dilbar Ubaydullayevna   |     |



|   |     |
|---|-----|
| Основные аспекты передачи способностей и генетических характеристик от родителей.....                                 | 176 |
| Тургунов Абдурашид Абдуманнобович   |     |
| Onalik munosabati autizm sindromli bolalarni ruhiy rivojlanishining omili sifatida.....                               | 182 |
| Asraxonova E'tibor Abduvaxob qizi, Lutfullayeva Iroda Abduvaxob qizi  |     |
| Psixik yetuklik bolaning maktab ta'limiga psixologik tayyorligi ko'rsatkichi sifatida .....                           | 186 |
| Jalilova Saboxat Xalilovna  |     |
| O'smirlar tasavvurida stressogen ta'sirlarning psixologik tahlili .....   | 191 |
| Ismoilova Nurjaxon Zuxuriddinovna   |     |
| Seminar mashg'ulotlarini samarali tashkil etishning "kouching" shakli .....   | 196 |
| Mamatkulova Kimyoxon Abdujalilovna  |     |
| Shaxs o'zini o'zi faollashtirishi tushunchasining ilmiy mohiyati.....   | 199 |
| Qurbonboyev Azimbek Nazirboy o'g'li   |     |
| Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlashda tarbiya texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi.....                          | 202 |
| Muxsiyeva Aziza Shamsitdinovna  |     |
| Pedagoglarda frustratsion tolerantlik namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari.....                              | 205 |
| Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li   |     |
| Kreativ yondashuv asosida talabalarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashning<br>pedagogik-psixologik xususiyatlari..... | 209 |
| Farxodov Fozil Baxrom o'g'li, Adizova Gulzoda Mehridinovna  |     |
| Социально-педагогическая компетентность воспитателя ДОО.....  | 212 |
| Ширбачеева Г. Ш., Тиллябаева М. Х.  |     |
| Inklyuziv ta'lim jarayonida o'quvchilarni kasbga yo'naltirishning o'ziga xos qirralari.....                           | 215 |
| Xusanov Samariddin Maxmadaminovich  |     |

# BO'LAJAK TARBIYACHILARNING MEDIAKOMPETENTLIGINI OSHIRISH MEKANIZMLARI

Nazarmatova Dilshoda Umarali qizi

“Toshkent Amaliy fanlar universiteti” nodavlat ta’lim muassasasi  
“Maktabgacha ta’lim metodikasi” kafedrasida o’qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada oliy ta’lim tashkilotlari maktabgacha ta’lim yo’nalishi talabalarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda raqamli texnologiyalar va kompyuter savodxonlik bilimlarini mukammal egallashlarida va ta’lim tarbiya jarayonlarida qo’llay olish mexanizmlari yoritib o’tilgan.

**Kalit so’zlar:** dastur, mexanizm, kompyuter savodxonlik, Internet, mediakompetentlik, kompetensiya, mobil ilova.

**Abstract:** In this article, the mechanisms of higher education institutions’ ability to use digital technologies and computer literacy knowledge in preparing preschool students for professional activities and in educational processes are highlighted.

**Key words:** program, mechanism, computer literacy, Internet, media competence, competence, mobile application.

**Аннотация:** В данной статье освещены механизмы способности высших учебных заведений использовать цифровые технологии и знания компьютерной грамотности при подготовке дошкольников к профессиональной деятельности и в образовательном процессе.

**Ключевые слова:** программа, механизм, компьютерная грамотность, Интернет, медиакompetentность, компетентность, мобильное приложение.

*Biz maktabgacha ta’lim va maktab ta’limi, oliy va o’rta maxsus ta’lim tizimi hamda ilmiy-madaniy muassasalarni bo’lg’usi Renessansning to’rt uzviy halqasi, deb bilamiz. Bog’cha tarbiyachisi, maktab muallimi, professor-o’qituvchilar va ilmiy-ijodiy ziyolilarimizni esa yangi Uyg’onish davrining to’rt tayanch ustuni, deb hisoblaymiz.*

**Sh. M. Mirziyoyev**

## KIRISH

Oliy ta’limni axborotlashtirish konsepsiyasi zamonaviy ta’lim talablariga javob beradigan an’anaviy va zamonaviy axborot texnologiyalarini birlashtiradigan raqamli texnologiyalar asosida elektron axborot-ta’lim muhitini yaratishga kompleks yondashishni nazarda tutadi. Bu faqat oliy ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanish vaziyatlarini har tomonlama tahlil qilish asosida amalga oshirilishi mumkin. Hozirgi davrda barcha sohalarda elektron hukumatning shakllanganligi va raqamli texnologiyalarning avj olganligi sababli barcha ta’lim tashkilotlarida, vaholanki maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ham raqamli iqtisodiyot tushunchalari, elektron resurslardan foydalanish va AKT savodxonligini oshirish maqsadida qator ishlar rejasi olib borilmoqda. Bo’lajak tarbiyachi va pedagog xodimlarni kasbiy kompetentligini shakllantirish, maktabgacha ta’lim muassasasi faoliyatini yanada takomillashtirish tizimida quyidagi xususiyatlar o’ziga xos ahamiyat kasb etadi:

- tarbiyachilarda kasbga kompetentlikni shakllantirishda ular bilan individual va jamoaviy ishlash;
- bolalarda odobi, ma’naviy-axloqiy qiyofasi, qiziqishi, faolligini oshirishga maqsadli yondashish,
- samaradorlikka e’tibor berishdan iborat.

Ta’lim-tarbiya jarayoniga bolalarni har tomonlama intellektual, ma’naviy-axloqiy va jismoniy rivojlantirishni ta’minlaydigan zamonaviy ta’lim dasturlari, ilg’or axborot va pedagogika texnologiyalarini joriy etish, ularni maktabga tayyorlash darajasini oshirish, maktabgacha ta’limni boshqarishning zamonaviy standartlarini yaratish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 487-sonli qarori muhim ahamiyat kasb etadi<sup>1</sup>.

1 O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 487-sonli “Maktabgacha ta’lim tizimiga ilg’or axborot va pedagogik texnologiyalarni joriy etish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori.





Shaxsiy kompyuterlardan foydalanish madaniyati hozirgi kunda yoshi va kasbidan qat'iy nazar har bir inson uchun zarur hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasida talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, o'quv jarayoniga kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, bu borada o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish kabi muhim vazifalar belgilab berildi. Konsepsiyaning 3-bobi, Maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning maqsadlari va ustuvor yo'nalishlari bo'limida:

- maktabgacha ta'lim sohasidagi me'yoriy-huquqiy bazani yanada takomillashtirish;
- maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;
- maktabgacha ta'lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg'or-pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish kabi bandida ko'rsatib o'tilgan.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvi tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni orqali MTTda yangi tizim yaratilgan bo'lsa, "2022–2023-yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 22.08.2022-yildagi PQ–357 sonli qarorida Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi 2023-yil 1-yanvargacha qadar yagona elektron hujjat aylanish tizimi, xabarlar almashish messenjeri, yig'ilish va tadbirlar kalendari, himoyalangan elektron pochta va videokonferensiyalar o'tkazish imkoniyatlarini o'z ichiga olgan davlat organlari va tashkilotlari xodimlarining avtomatlashtirilgan ish joyi – "Digital office" elektron tizimi (keyingi o'rinlarda – "Digital office" tizimi) ishlab chiqilishini va birinchi bosqichda, sinov tariqasida vazirlik tizimida, keyinchalik barcha davlat organlarida joriy etilishini ta'minlash to'g'risida bir qator ishlar hamda vazifalar keltirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi 2020-yil 22-dekabrda 802-sonli qarori Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat standartlarining 2-bobida keltirilgan davlat talablarining asosiy maqsadi mamlakatda o'tkazilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni, xorijiy mamlakatlar ilg'or tajribasi hamda ilm-fan yutuqlari va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini inobatga olgan holda maktabgacha ta'lim tizimida ma'naviy barkamol va intellektual jihatdan rivojlangan shaxsni tarbiyalashdan iborat hisoblanadi.

## ASOSIY QISM

Oliy ta'lim dargohlarida maktabgacha ta'lim metodikasi professor o'qituvchilari tomonidan talabalarga maktabgacha ta'lim tashkilotida faoliyat yurituvchi bo'lg'usi tarbiyachilarning AKT savodxonligini oshirishda olib boriladigan dars mashg'ulotlarining samarasi muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi natijasida tarbiyachi-pedagoglarning Media savodxonligini oshirish maqsadida ularga qator mexanizmlarni kasbiy faoliyatida qo'llashni amalga oshirishdan iborat. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yilga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi" 4-bobining 38-39-40-maqсадlarida Maktabgacha ta'lim tizimini ta'lim sifati, qamrov darajasi va sifatli budjet maqsadlarining maqsadli va sifatli sarflanishini ta'minlash hamda 42-maqсадida 2026-yilga qadar o'quv dasturlari va darsliklarni ilg'or xorijiy tajriba asosida to'la qayta ko'rib chiqib, amalda joriy etish kabi maqsadlarni o'zida aks ettirgan. Shu jumladan, Prezidentimiz Farmoniga binoan Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining birlashuvi juda ko'p o'zgarishlarni o'z ichiga oldi. Jumladan: Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Raqamli texnologiyalar hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi mutaxassislari ishtirokida aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlarni raqamlashtirish, Yagona interaktiv davlat Xizmatlari portali orqali ko'rsatilayotgan elektron xizmatlar ko'lamini kengaytirish va yangi xizmatlarni joriy etish masalalari muhokama etildi.

Xususan, aholiga qulaylik yaratish maqsadida quyidagi elektron xizmatlarni tez orada ishga tushirish kelishib olindi:

- Maktab o'quvchilarni 1-sinfga onlayn qabul xizmati;
- O'quvchilarni maktabdan maktabga onlayn ko'chirish xizmati;
- Elektron shahodatnomani yuklab olish xizmati;
- Talabalarni yotoqxonaga onlayn joylashish xizmati;
- Talabalarga ta'lim kreditini onlayn ajratish xizmati va boshqalar.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti, maktab, oliy ta'lim tizimlarida yangi elektron xizmatlari joriy etiladi. Barcha takliflar tahlil etilib, qulay xizmatlarni joriy etish choralarini ko'riladi.

Ta'lim sohasida joriy etilgan elektron xizmatlardan – Ta'lim sohasida elektron xizmatlar havolasi orqali foydalanish mumkin.

Tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarligi masalalari Y. I. Artamonova, Y. V. Andrienko, V. I. Baydenko, Y. V. Berjnova, A. A. Verbiskiy, I. A. Zimnyaya, V. V. Krayevskiy, N. V. Kuzmina, V. V. Serikov, V. A. Slastenin, Y. G. Tatur, A. V. Xutorskiy, Y. N. Shiyonov kabi rus olimlari tomonidan keng miqyosda o'rganilgan. O'qituvchilarni tayyorlash va kasbning ijtimoiy mohiyatining turli jihatlari A. V. Mudrik, F. R. Yuzlikayev, E. R. Yuzlikayeva, N. M. Urinovlarning izlanishlarida o'z aksini topgan.

Kasbiy pedagogik faoliyatning aksiologik jihatlari V. A. Slastyonin, E. N. Shiyonov, O. Musurmonova, Sh. Mardonovlarning asarlarida yoritilgan

I. V. Robertning ilmiy ishlarida "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari" fanini o'qitish jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning psixologik va pedagogik aspektlari ko'rsatib o'tilgan.

A. Abdulkadimov, N. Begmatova, S. L. Novosyolova, S. Peyart, B. Hanter, N. P. Chudova va bir qator boshqa mahalliy hamda chet ellik tadqiqotchilarning ishlarida asosan katta maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishda axborot texnologiyalaridan foydalanishning amaliyiligi tasdiqlab berishgan.

Yosh avlod tarbiyasida tarbiyachilarning metodik kompetentligini shakllantirish orqali inson hayotiga, shaxs tarbiyasiga, ijtimoiy munosabatlar rivojlanishiga ma'lum ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Shaxsiy kompyuterining ushbu pedagogik imkoniyatlarini hisobga olgan holda, oliy ta'lim maktabgacha ta'lim yo'nalish talabalarini raqamli texnologiyalardan foydalanib, ularning mediasavodxonligini oshirishni tashkil etish ta'lim jarayoniga yangi bilim vositalarini joriy etishga ta'sir ko'rsatadi.

I. V. Robertning tadqiqotlarida pedagogik maqsadlarni amalga oshirishda kompyuter vositasidan foydalanish:

- 1) axborotlashgan jamiyat sharoitida talabani qulay hayotga tayyorlash uchun uni rivojlantirish: (kommunikativligi, fikr yuritishi, estetikasi, to'g'ri qaror qabul qilishi, axborot madaniyatini shakllantirilishi va h.k.);
- 2) ta'lim jarayonining barcha darajasini kuchaytirish: (axborot texnologiyalari ta'limda qo'llanilganligi sababli ta'lim jarayoni sifati va samaradorligini oshishi, ta'limni vizuallashtirilganligidan motivatsiyani vujudga kelishi);
- 3) zamonaviy kompyuterlar orqali axborotlarni qayta ishlash fanlararo aloqalarni mustahkamlanishiga olib kelishini ko'rsatib bergan<sup>2</sup>.

Lapchik (2013), Yachin (2016), Fernandes va Yachina (2018), kontekstda o'qituvchilarni raqamli tayyorlashning dolzarbligiga e'tibor qaratadi, zamonaviy pedagogik ta'limni axborotlashtirish va raqamlashtirish, kelajakning muayyan darajasini shakllantirish zarurati raqamli texnologiyalar sohasidagi o'qituvchining raqamli kompetensiyasi muhimligini ta'kidlaydilar. Shu asnoda ta'lim jarayonida axborot olish kompetentligi va media-kompetentlik tushunchalariga e'tibor qaratamiz.

Axborot olish kompetentligi – shaxsning kasbiy ahamiyatli integrativ sifati bo'lib, uning axborot olamida mo'ljalni to'g'ri olish va faoliyat yuritish uchun zarur bo'lgan kompetensiyalar majmuyini o'zlashtirish darajasi bilan tavsiflanadi. "Media" atamasi (lotincha – medium, ya'ni vosita, vositachi, usul) turli ko'rinishdagi kommunikatsiya va axborot vositasini anglatadi. Media tushunchasi mazmuniga axborotni yaratish, nusxalashtirish, tarqatish vositasi hamda mualliflar va ommaviy auditoriya o'rtasida axborot almashinuvining texnik vositalari kiradi. Alexander Fedorov fikricha, mediasavodxonlik bu jarayonning natijasi sifatida insonga axborot imkoniyatlaridan faol foydalanishga yordam beradi. Televideniye, radio, video, kino, matbuot va Internet tomonidan taqdim etilgan soha. Media va axborot savodxonligi – "soyabon", ya'ni bir tushuncha mazmunida ikki ma'no birlashgan atama sifatida YUNESCO tomonidan tavsiya etilgan. Uning mohiyatini anglash uchun har bir tushuncha o'zagini bilish zarur.

Bugungi axborotlashgan jamiyatda internet tarmog'i yordamida turli sahifalardan axborot uzatish vositalaridan olinayotgan turli xil ko'rinishdagi axborotlarni yopish va taqiqlash, uzatilayotgan turli syujetlarni chegaralashning imkoniyati kamroq bo'lganligi sababli "Mediata'lim" tushunchasining paydo bo'lganligi, Media kompetentlik tushunchasi, AKT kompetentligi, Raqamli savodxonlik, Raqamli hukumat, Digital kompetensiyalarini shakllantirishda elektron resurs ta'limi juda katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Shu yo'sinda hozirgi kunda ommalashayotgan STEAM ta'lim texnologiyasining kirib kelishi ham bevosita elektron resurslarni o'rganish va o'zlashtirishga olib keladi.

2 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 487-sonli "Maktabgacha ta'lim tizimiga ilg'or axborot va pedagogik texnologiyalarni joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.





## XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, raqamli texnologiyalar avj olgan davrda kelajak yosh avlodni internet tarmog'idan unumli foydalanishi, vaqtini tejashi va kasbga yo'naltirishda ham yaratilayotgan onlayn platformalar, onlayn-darslar va hattoki onlayn-ijtimoiy tarmoqlardagi ba'zi yo'nalishlar IT va SMM, Target va shu kabilar orqali ham daromad qilishni yo'lga qo'yish shakllandi va bundan ko'pchilik foydalanishmoqda. Shu sababli oliy ta'lim muassasasi maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarida mediasavodxonlik, AKT savodxonlikni oshirish maqsadida sohaga doir fanlarning kiritilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

STEAM ta'lim texnologiyasini o'zlashtirgan DMTT tarbiyachi-pedagoglari va maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachi-pedagoglari robototexnika o'quv kursini ochish imkoniyati bor. STEAM texnologiyasining Robototexnika moduliga asosan, multstudiya moduliga asosan kompyuter savodxonligi va Web dizayn kurslarini ham ochish kunning ikkinchi yarmida bolalarga ta'lim berish va daromad olish imkonini beradi. Bu kabi imkoniyatlar hozirgi bo'lajak yosh kadrlar muvaffaqiyatlarining kaliti hisoblanadi.

### Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Takomillashtirilgan ilk qadam Davlat o'quv dasturi". – T., 2022.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 2020-yil 23-sentabr, O'RB–637-son.
3. "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF–4312-sonli farmon 2019-yil 8-may.
4. "Maktabgacha ta'lim tizimiga ilg'or axborot va pedagogika texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 487-sonli qarori.
5. 2022–2023-yillarda "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari" to'g'risidagi 22.08.2022-yildagi PQ–357-sonli qarori.
6. Mo'minova Nargiza. Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining mediakompetentligini rivojlantirish. // Xalq ta'limi Ilmiy-metodik jurnali. 6-son. – T., 2020. – 110-b.
7. Sodiqova Sh. A. Maktabgacha pedagogika. – T., 2019. [https://scholar.google.ru/citations?hl=ru&view\\_op=list\\_works&gmla=AP6z3OZs4QUmw-LKp1Ne35nFSzVQ3gyY8i0oHptm2k09XdjOAttj\\_gKz6HgNvmdt-iJa3pKpBGWY94X-jXmixqrKnXOe\\_oGMmgXNk1LRtipymIqwjQDGTNYv&user=uBjak20AAAAJ](https://scholar.google.ru/citations?hl=ru&view_op=list_works&gmla=AP6z3OZs4QUmw-LKp1Ne35nFSzVQ3gyY8i0oHptm2k09XdjOAttj_gKz6HgNvmdt-iJa3pKpBGWY94X-jXmixqrKnXOe_oGMmgXNk1LRtipymIqwjQDGTNYv&user=uBjak20AAAAJ)



**Muharrir:** Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2023. № 1**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

“Maktabgacha va maktab ta’limi”  
jurnali

26.06.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan №C-5669245  
reyestr raqami tartibi bo‘yicha  
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga  
ilmiy maqola, reklama materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Тел.: 93 718 40 07

**Manzirimiz: Manzirimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**